

Abdurofiyeva Nodirabonu Avaz qizi

Tojiddinov Muhammadbobur Bahrom o`g`li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari :

Annotatsiya: Fuqarolik jamiyatida ko`pchilik insonlar o`z qobiliyat , salohiyat va erkin tanlagan kasbiy tanlovlaridan kelib chiqqan holda muayyan muassasa va tashkilotlarda mehnat faoliyatlarini amalga oshiradilar va ular mehnat shartnomasida belgilab qo`yilgan ish soatlarida o`zlariga yuklangan vazifalarni bajaradilar. Biroq belgilangan ish soatlari xodimlarning ishchanlik qobiliyatiga va ishga bo`lgan ijobiy munosabatlariga putur yetkazmoqda, bu esa xodim faoliyat olib borayotgan muassasaning faoliyatiga o`z ta`sirini o`tkazmay qolmaydi.

Ushbu maqolada mehnat faoliyatining tashkil topishi ,sakkiz soatlik ish kunining kelib chiqish tarixi, sakkiz soatlik ish kunning salbiy oqibatlarining sabablari, jahon tajribasi va ish soatlarini qisqartirish mehnat samaradorligini oshirish uchun yechim ekanligiga oid islohotlar keng yoritilgan.

Kalit so`zlar: Ish vaqti, mehnat huquqi, xodim, mehnat shartnomasi , Qirol Ordenan de Felipe farmoni, “yarim professionallar”, “texnik xodimlar”,ish haqqi, “Karroschi” atamasi , sprintlar tizimi, dam olish vaqti ,mahsuldorlik chegarasi .

Inson bor ekan , jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lish, muayyan sohaning yetuk kadri bo`lish uchun harakat qiladi va o`z sohasiga doir bo`lgan bilim va ko`nikmalarimi oshirib boradi. Zero har bir shaxs rivojlangan fuqarolik jamiyatini qurishda o`z mehnati bilan hissa qo`shishga xohishmanddir. O`zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasining 42-moddasida mehnat qilishga oid huquq va erkinliklar norma shaklida qayd etib qo`yilgan .

Unga ko`ra :

“Har kim munosib mehnat qilish , kasb va faoliyat turini erkin tanlash , xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash , mehnat uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to`lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo`lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega...”¹

Shaxs biror muassasa yoki tashkilotda belgilangan vaqtda o`z mehnat faoliyatini amalga oshiradi. Xo`sh, ish vaqtining o`zi nima degan savolga javob topish uchun mehnat qonunchiligiga murojaat qilamiz.Mehnat kodeksining 114-moddasiga ko`ra:²

Ish vaqti - bu xodim ish tartibi va grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o`z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo`lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi. Mamlakatimiz qonunchiligiga ko`ra ish vaqti uch turga bo`linadi. Bular:

1. To`liq ish vaqti ;

¹ <https://lex.uz>

² <https://www.norma.uz>

2. Qisqartirilgan ish vaqti.;

3. To'liqsiz ish vaqtlaridir.

To'liq ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak. Biroq qonunchiligimizda belgilangan yosh toifadagi va muayyan zararli va xavfli sharoitda ishlaydigan shaxslar uchun imtiyozlar mavjud. Bunga ko'ra ular qisqartirilgan ish vaqti rejimida ishlaydilar. Bu ish stajiga hamda va boshqa huquqlarga o'z ta'sirini o'tkazmaydi. Mehnat qonunchiligining 118-moddasiga asosan quyidagi shaxslar ish soatlari aniq qilib qo'yilgan qisqartirilgan ish vaqtida ishlaydilar :

- 16 yoshgacha bo'lganlar uchun haftasiga 24 soat;
- 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar uchun haftasiga 36 soat;
- Zararli va xavfli sharoitda ishlaydigan lar uchun ham qisqartirilgan ish vaqtlari belgilangan.

Bugungi kundagi qulay ish soatlarining kelib chiqish tarixi hech birimizni qiziqitirmay qolmaydi. Odatda 8 soatlik ish kuni ba'zi xodimlar uchun juda uzoq ish vaqti sifatida qabul qilinishi mumkin , biroq 8 soatlik ish vaqtiga erishish uchun uzoq yillar avval odamlar tish-tirnog'i bilan kurashishgan. Xususan sanoat jihatdan rivojlangan davlatlardan biri Buyuk Britaniya mamlakatida bu vaziyat juda qiyin kechgan. Fabrika mehnatining ommalashishi natijasida ishchi xodimlar bundan aziyat chekmay qolishmadi. Bolalar mehnatidan foydalanish, xavfli ish sharoiti va haftasiga 6 kun davomida ular eng kamida 10 soat ishlashgan. Odatiy ish soatlari esa 16 soatni tashkil etgan. 18-asr oxirlarida bu vaziyat nafaqat Buyuk Britaniyada , balki ko'p mamlakatlarda ish kuni 16-17 soatni , 1- jahon urush arafasida esa 10-12 soatni tashkil etgan.³ Ishchilar uzoq vaqt davomida bu holatga ko'z yumib kelishgan va o'z huquqlarini ilg'ay boshlashgan ishchilar tomonidan ishdan bosh tortish, g'alayonlar ko'tarish, namoyishlar kabi harakatlar boshlangan. Bunday vaziyatni ko'rgan ish beruvchilar ishchilar uchun qulayliklar yaratilmasa, sanoati inqirozga yuz tutishini anglab yetishdi. Shunday islohotlarni Shotlandiyaning Nyu-Lanark shahridagi tegirmon egasi Robert Ouen boshlab berdi. U ilk marta 1810 yilda o'z ishchilariga 10 soatlik ish kunini taklif qildi .Bu taklifni tegirmon ishchilari ta'tildek qabul qilishdi. Hozirgi davrda biz insonlar 10 soat ishlaydigan bo'lsak , o'zimizni uzoq davom etgan smenadan chiqqandek his etamiz.10 soatlik ish kunini ham ko'p deb hisoblagan Robert Ouen keyinchalik 8 soatlik ish kuni uchun kurash olib bordi. Robert Ouen 8 soatlik ish kuni talabi bilan chiqqanida, u shu so'zlarni o'z shioriga aylantirib olgan edi :”8 soatlik ish kuni, 8 soatlik dam olish vaqti va 8 soatlik uyqu”. Robert Ouenning g'oyalaridan ilhomlangan ish beruvchilar Buyuk Britaniyada ayollar va bolalar uchun ish soatlari 10 soat etib belgilandi. Biroq Fransiyada esa uzoq yillik kurashlar natijasida faqatgina 1848-yilga kelib 12 soatlik ish kuniga erishishdi . Islohotlar tobora avj olib 1840-1850 yillarda Yangi Zelandiya va bir qator mamlakatlarning malakali ishchilari 8 soatlik ish kuniga ishlay boshlashdi.

18-asrda AQSHda 10 soatlik ish kuniga erishish uchun juda qattiq kurashlar olib borildi, unga ko'ra 1835-yilda Filadelfiyada Shimoliy Amerikadagi birinchi yirik ish tashlash o'tkazildi. Bu vaziyat ish beruvchilarni sarosimaga tushirib qo'ydi.

1864-yilga kelib bu talab 8 soatlik ish kuni talabiga almashdi . Va nihoyat 1868 yilda iyunida Kongress “ 8 soatlik ish kuni to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun birinchilardan bo'lib Prezident Endryu Jyeksonning vetosiga duchor bo'ldi, biroq qonunchilik prezidentning vetosini qabul qilmadi. Ushbu qonunga javoban ish beruvchilar xodimlarning oylik ish haqining 20 foiz miqdorini bermaslikka qaror qildi. 1869-yilda president Ulis Grant “Xodimlar maoshini qisqartirmaslik to'g'risida”gi qonun loyihasini e'lon qildi. Uzoq yillik kurashlardan

³ <https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/ish-kuni/>

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

IYUL

ANDIJON, 2025

so'ng AQSHning ilg'or ishchilari 8 soatlik ish kuniga ega bo'lishdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra Amerikada 40 soatlik ish kunining joriy etilish tartibini Henri Ford nomi bilan bog'liqdir. U keng ommani 40 soatlik ish haftasi ish samaradorligini oshirishga ishonirgan.

Henri Fordning o'z davrida o'z ishchilari uchun qilgan islohotlari tahsinga loyiqdir. Gap shundaki u 1914 yilning 5-yanvaridan ish vaqtini 9 soatdan 8 soatga qisqatiribgina qolmay, kunlik maoshni rag'batlantirish sifatida 5 dollarga ham oshirdi. O'z davri uchun bu islohot haqiqiy svilizatsiya edi. Va nihoyat 1950- yilga kelib Amerikaning barcha shtatlarida 8 soatlik ish kuni umumiy standart sifatida qabul qilindi.

Ilg'or mamlakatlardan biri hisoblanadigan Germaniya mamlakatida 20-asrga kelib 8 soatlik ish kuni islohoti joriy etildi.

Fransiyada esa 1836-yilda 40 soatlik ish haftasiga doir ilk qonun hujjati qabul qilindi.

Rossiya Federatsiyasida esa bu islohot faqatgina 1917-yildagi oktabr inqilobidan keyin joriy etilgan.

Hozirgi kunda jahon miqiyosida 40 soatlik ish haftasi standart ish vaqti hisoblanadi. Biroq shunga qaramasdan ish samaradorligini oshirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar ish soatlarini kamaytarishga doir islohotlarni amalga oshirishda ilg'orlikni qo'ldan berishni xohlashmayapti.

Har yili ilg'or mamlakatlarning ish soatlarini ko'paytirganliklari yoki ish soatlarini qisqartirganliklariga doir ma'lumotlar olinib dunyo statistikasi tuziladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra xodimlari eng kam ish soatlarida ishlaydigan mamlakatlar top 4 taligiga Vanuatu mamlakati haftasiga 24.7 soat bilan birinchi o'rinni egallamoqda.

Top 10 countries with the least amount of working hours in 2024:

Rank	Country	Average hours per week
1	Vanuatu	24.7
2	Kiribati	27.3
3	Micronesia	30.4
4	Rwanda	30.4

Bundan tashqari 2024-yilda ish vaqti eng past va eng yuqori bo'lgan 10 ta davlatlar aniqlandi.

⁴ <https://top10sense.com/top-10-countries-with-the-lowest-and-highest-working-hours-in-2024/>



Xodim qanchalik kam soat ishlasa , ish samaradorligi shuncha oshadi. Bunga misol tariqasida Avtomobil ishlab chiqaradigan kompaniyaning asoschisi Henri Ford misolida ko`rishimiz mumkin. Biroq bu o`sha mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga ham bog`liqdir. **Eng kam ish vaqtiga ega 5 ta davlat:**

Niderlandiya

Niderlandiya eng qisqa ish soatlariga ega. U erdagi ishchilar odatda haftasiga 29-30 soat ishlashadi. Bu ish va hayot o'rtasidagi yaxshi muvozanatni ta'minlaydi. Niderlandiya mamlakatida ayyollar haftasiga 25 soat ishlashadi , erkaklar esa 34 soat ishlashadi va bu samaralidir.

Germaniya

Germaniya samarali va qisqa ish haftasiga ega ekanligi bilan mashhur. U erda ishchilar haftasiga o'rtacha 34 soat ishlaydi. Ular, shuningdek, ko'p ta'til vaqti va kuchli himoyaga ega bo'lib, yuqori mahsuldorlikka olib keladi.

Daniya

Daniya ishchilari dunyodagi eng qisqa ish haftalaridan biriga ega, ya'ni 32-33 soat. Mamlakat moslashuvchanlikni qadrlaydi, bu esa ishchilarga ortiqcha ishlamasdan yaxshiroq hayot sifatiga ega bo'lish imkonini beradi.

Norvegiya

Norvegiya haftasiga o'rtacha 34 ish soati bilan ish va hayot muvozanatiga e'tibor qaratadi. U oilaviy vaqt va bo'sh vaqtni birinchi o'ringa qo'yadi, stressni kamaytiradi va baxtni oshiradi.

Shvetsiya

Shvetsiya haftasiga o'rtacha 35 soatdan qisqaroq soatlarni maqsad qilib qo'ygan. Shuningdek, u moslashuvchan ish va ko'plab ota-ona ta'tillarini taklif qiladi, bu esa xodimlar uchun ajoyib qiladi.

Eng ko'p ish vaqtiga ega 5 ta davlat

Meksika

Meksika eng uzun ish soatlariga ega, xodimlar haftasiga 48 soat ishlaydi. Cheklangan haq to'lanadigan ta'til va ko'p qo'shimcha ish bu uzoq soatlarga hissa qo'shadi.

Janubiy Koreya

Janubiy Koreyada ishchilar ish soatlarini qisqartirish harakatlariga qaramay, haftasiga 44-46 soat ishlamoqda. Kuchli ish madaniyati va jamiyatning umidlari uzoq kunlarga olib keladi.

Gretsiya

Gretsiyada ishchilar haftasiga o'rtacha 42-44 soat ishlaydi. Iqtisodiy qiyinchiliklar va ish bilan ta'minlanmaganlik, odamlar ish talablarini qondirishga harakat qilganda, uzoqroq soatlarga olib keladi.

Chililik

chililik ishchilar haftasiga o'rtacha 44 soat ishlaydi, bu esa eng uzun soatlardan biriga aylanadi. Mehnat islohotlari muvozanatni yaxshilashga qaratilgan, ammo uzoq vaqt ishlash madaniyati saqlanib qolgan.

Hindiston

Hindistonda ishchilar haftasiga 45-48 soat ishlashadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyot va raqobatbardosh mehnat bozori uzoq kunlarga olib keladi, ayniqsa shaharlarda, IT va ishlab chiqarishda.

Ish soatini qisqartirish zarur , chunki bu zaruriy islotdir. Ish soatini qisqartirishning samarali ko'p. Bular:

- Diqqatning oshishi;
- Xodimning ishchan bo'lishi;
- Ish sifatining oshishi;
- Vaqtni samarali tashkil etish kabi foydali jihatlari mavjuttur.

Ish soatini ko'paytirish bir qator salbiy oqibatlarini olib kelishi mumkin. Yaponiya mamlakatida "Karoshi" (ortiqcha ishlashdan o'lim) tushunchasi mavjud bo'lib , bu uzoq ish soatlarining jiddiy oqibatlarini ko'rsatadi.

Ish soatini ko'payishining salbiy oqibatlari:

1. Stress va charchoq: Doimiy stress yurak-qon tomir kasalliklari, yuqori qon bosimi va diabet xavfini oshiradi.

2. Uyqu buzilishlari: Uzoq ishlash uyquga yetarli vaqt ajratilmasligiga olib keladi, bu esa kognitiv faoliyat va immunitetni pasaytiradi.

3. "Karoshi" va boshqa o'lim holatlari: Ish bilan bog'liq ortiqcha yuklanish nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham zarar yetkazadi.

5. Oila bilan vaqt yetishmovchiligi: Ish vaqti uzoq bo'lgani sababli oilaviy munosabatlar zaiflashadi.

7. Ijtimoiy izolyatsiya: Ko'p ishlash natijasida odamlar do'stlari va ijtimoiy hayotdan uzilib qoladi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

IYUL

ANDIJON, 2025

8. Ishlash sifatining pasayishi: Haddan tashqari uzoq ishlash xodimning unumdorligini tushiradi va xatolar sonini oshiradi.

9. Burnout (charchoq sindromi): Ishdan ruhiy holdan toyish xodimning samaradorligini yo'qotishiga olib keladi.

10. Ishchi kuchining barqarorligi pasayishi: Xodimlar ortiqcha yuk sababli ko'p hollarda ishdan bo'shahga qaror qiladi.

11. Davlat sog'liqni saqlash xarajatlarining oshishi: Stress va mehnat bilan bog'liq kasalliklar davlat sog'liqni saqlash tizimiga bosimni oshiradi.

Odatda ko'p soat ish faoliyati bilan shug'ullanish emas, kam soatlarda hamda tirishqoqlik bilan bajarilgan ish samaralidir.

1930-yillarda kuchli jahon iqtisodchilaridan biri bo'lgan Jon Meynard Keynes dunyo 2030 yilga kelib, texnologik taraqqiyot tufayli 15 soatlik ish haftasiga o'tadi, deya bashorat qilgan. Bu bejizga emas, chunki hozirgi davr-texnologiyalar davridir!

Xulosa: Ish soatlarining qisqartirish bu samarali usul hisoblanadi. Bunga qo'shimcha tarzida 1 smenalik 8 soatlik ish kunini 2 smenalik 4 soatdan bo'lib unga bir xodim ishlaydigan ish o'rnini ikki xodimga berilsa, ish samaradorligi ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi hamda bir vaqtning o'zida ishsizlik darajasini kamaytirishda sezilarli natija ko'rsatadi. Biroq oylik maosh pasaytirilmasa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Bu loyiha xususiy fabrika, muassalarda foydalanilsa o'z natijasini ko'rsatish ehtimoli yuqoridir. Biroq davlat organlarida bu usuldan foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
3. <https://top10sense.com/top-10-countries-with-the-lowest-and-highest-working-hours-in-2024/>
4. <https://lex.uz>
5. <https://www.norma.uz>
6. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/ish-kuni/>